



“Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari” respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib kasbiy va xalqaro standartlar asosida yangilangan kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog va o'quvchilari uchun raqamli ta'lim resurslarini yaratish maqsadida “Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari” respublika ko'rik-tanlovini (keyingi o'rinlarda – Tanlov) o'tkazish va g'oliblarni aniqlash tartibini belgilaydi.

2. Tanlovni o'tkazishning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

Tanlovning asosiy maqsadi:

Kasbiy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni zamonaviy raqamli resurslari bilan ta'minlash;

belgilangan kasb bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lgan kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan yaratilgan raqamli ta'lim resurslarini jamlash, takomillashtirish va ommalashtirish;

kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog va o'quvchilari uchun raqamli ta'lim resurslarining ishlab chiqilishini qo'llab-quvvatlash;

yaratilgan raqamli ta'lim resurslarini milliy internet tarmog'iga erkin foydalanish uchun joylashtirish, ular to'g'risida keng pedagogik jamoatchilikni xabardor qilish;

ta'lim-tarbiya jarayoniga raqamli ta'lim resurslarini joriy etish bo'yicha uslubiy jihatdan ko'maklashish;

ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llayotgan pedagog kadrlar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishdan iborat.

Tanlovning asosiy vazifalari:

kasbiy standartlar va xalqaro ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan yangilangan ta'lim dasturlarini amalga oshirish jarayonini sifatli raqamli ta'lim kontentlari bilan ta'minlash;

o'quv jarayonida qo'llash uchun interaktiv, multimediamiy, vizual va boshqa innovatsion raqamli ta'lim resurslarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishni qo'llab-quvvatlash;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish;

raqamli ta'lim kontentlarini yaratish sohasida eng yaxshi pedagogik ishlanmalarni saralash, baholash va respublika miqyosida ommalashtirishdan iborat.

3. Raqamli ta'lim resursi (RTR) – bu bir kasb (mutaxassislik) o'quv rejasi asosida aniq bir modulning o'qitish natijalariga muallif(lar) tomonidan shakllantirilgan mavzular bo'yicha qamrab olingan raqamli ta'lim kontentlari to'plami.

Raqamli ta'lim kontenti (RTK) – bu aniq bir modulga ajratilgan soat doirasida muallif(lar) tomonidan shakllantirilgan mavzular bo'yicha o'quv jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan raqamli shaklda taqdim etilgan materialdir.

Uning tarkibi muallif(lar) tomonidan shakllantirilgan mavzular bo'yicha quyidagilardan iborat:

- modulning o'qitish natijalari asosida muallif(lar) tomonidan shakllantirilgan mavzular ro'yxati;

- ma'ruza matni (nazariy va amaliy mashg'ulotlarni qamrab oladi);

- o'quv jarayonida qo'llaniladigan metodlar ro'yxati;

- media materiallar (audio, video va animatsion materiallar);

- didaktik-ko'rgazmali materiallar;

- taqdimot materiallari;

- baholash-nazorat materiallari (mustahkamlovchi savollar, amaliy topshiriqlar, test materiallari, mashq va masalalar to'plami);

- glossariy (atamalar lug'ati) kabi materiallardan iborat bo'ladi.

II. Tanlov bosqichlari va ularni o'tkazish tartibi

4. Tanlov uch bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich – noyabr oyining **10-sanasi**gacha kasbiy ta'lim tashkilotlari doirasida;

2-bosqich – noyabr oyining **20-sanasi**gacha hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'yicha) doirasida;

3-bosqich – dekabr oyining **10-sanasi**gacha respublika doirasida.

5. Har bir bosqichda tanlovni sifatli va yuqori saviyada o'tkazish uchun kamida 5 nafardan iborat Tashkiliy qo'mita tuziladi. Tashkiliy qo'mita raisi tanlov bosqichlar bo'yicha mos ravishda kasbiy ta'lim tashkiloti rahbari, hududiy boshqarma boshlig'i hamda Kasbiy ta'lim agentligi direktor o'rinbosari hisoblanib, tanlovni o'tkazish bo'yicha mas'uldirlar.

6. Tanlovga taqdim etilgan raqamli ta'lim resurslarini ko'rib chiqish va baholash uchun har bir bosqichda Tanlov hay'ati tashkil etiladi. Tanlov hay'ati tarkibiga ekspert sifatida har bir tegishli yo'nalishlar hamda axborot texnologiyalari bo'yicha yuqori tajribaga ega bo'lgan kamida 5 nafar malakali mutaxassislar kiritiladi. Zarur holatlarda yo'nalishlar bo'yicha qo'shimcha mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

Har bir bosqichdagi Tanlov hay'ati a'zolarining ro'yxati mos ravishda tegishli Tashkiliy qo'mitalar tomonidan tasdiqlanadi.

7. Raqamli ta'lim resurslarini baholash va keyingi bosqichga tavsiya qilishga Tanlov hay'ati mas'ul hisoblanadi.

8. Tanlovning birinchi bosqichida belgilangan kasb (mutaxassislik)lar kesimida 1 ta eng yaxshi modul bo'yicha I o'rinni egallagan g'oliblar tanlovning keyingi ikkinchi bosqichida ishtirok etadi.

Tanlovning ikkinchi bosqichida belgilangan kasb (mutaxassislik)lar kesimida 1 ta eng yaxshi modul bo'yicha I o'rinni egallagan g'oliblar tanlovning keyingi Respublika bosqichida ishtirok etadi.

Tanlovning uchinchi bosqichida belgilangan kasblar kesimida 1 ta eng yaxshi modul bo'yicha I o'rinni egallagan (60x1=60 ta)lar 3-respublika bosqichi g'oliblari hisoblanadi.

9. 1-bosqichda raqamli ta'lim resurslari kasbiy ta'lim tashkiloti Tashkiliy qo'mitasiga pedagog kadrlari tomonidan topshiriladi. Raqamli ta'lim resurslari kasbiy ta'lim muassasasi Tashkiliy qo'mitasi tomonidan tuzilgan Tanlov hay'ati tomonidan 10-noyabrgacha baholanadi hamda g'olib deb topilgan ishtirokchilar ro'yxati va raqamli ta'lim resurslari Tashkiliy qo'mita qarori bilan keyingi bosqichga 3 ish kuni davomida taqdim etiladi.

10. Tanlovning 2-bosqichiga o'tgan kasbiy ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan raqamli ta'lim resurslari hududiy boshqarmalar tomonidan jamlanadi. Raqamli ta'lim resurslari hududiy boshqarma Tashkiliy qo'mitasi tomonidan tuzilgan Tanlov hay'ati tomonidan 20-noyabrgacha baholanadi hamda g'olib deb topilgan ishtirokchilar ro'yxati va raqamli ta'lim resurslari Tashkiliy qo'mita qarori bilan respublika bosqichida ishtirok etish uchun respublika Tashkiliy qo'mitasiga taqdim etiladi.

11. 3-respublika bosqichiga taqdim etilgan raqamli ta'lim resurslari 10-dekabrgacha Tanlov hay'ati tomonidan baholanadi va g'oliblar aniqlanadi hamda ular ro'yxati Tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi. Belgilangan kasb (mutaxassislik)lar kesimida 1 ta eng yaxshi modullar bo'yicha I o'rinni egallab g'olib deb topilgan mualliflar Tashkiliy qo'mita qarori bilan belgilangan tartibda taqdirlanadi.

12. Tanlovning 1 va 2-bosqichlari yakuni bo'yicha g'olib deb topilgan raqamli ta'lim resurslari to'g'risidagi buyurtma mazkur Tartibning **1-ilovasida** keltirilgan jadvalga muvofiq to'ldiriladi va tegishli Tashkiliy qo'mitaga tasdiqlangan holda taqdim etiladi.

13. Bitta moduldan ikki yoki undan ortiq bir xil mazmun va shakldagi, shuningdek, ko'chirilgan (plagiat) raqamli ta'lim resurslari Tanlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

14. Bitta modulning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda raqamli ta'lim resursini 3 nafargacha pedagog kadrlar hamkorlikda ishlab chiqishiga ruxsat beriladi.

15. Kasbiy ta'limni rivojlantirish institutining <http://rtr.profedu.uz> platformasida mavjud bo'lgan hamda umumta'lim fanlari bo'yicha ishlab chiqilgan raqamli ta'lim resurslari tanlovga qabul qilinmaydi va Tanlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Biroq, ommalashtirilgan raqamli ta'lim resurslarini asosli ravishda qayta takomillashtirish mumkin (modullarning soati, o'qitish natijalari va mazmuniga kamida 50 foiz o'zgartirishlar kiritilganda).

16. Tanlovga raqamli ta'lim resurslari foydalanishga tizimlashtirilgan tayyor dasturiy mahsulot sifatida taqdim etiladi. Materiallar (word, excel, pdf, jpg va boshqa ko'rinishda) alohida fayllar sifatida qabul qilinmaydi.

Tanlovning barcha bosqichida taqdim etilgan raqamli ta'lim resurslari tasdiqlangan baholash mezonlari asosida baholanadi va mazkur Tartibning **2-ilovasida** keltirilgan shakl to'ldiriladi.

III. Tanlov mezonlari va raqamli ta'lim resursini baholash

17. Tanlovning barcha bosqichlarida raqamli ta'lim resurslari Tartibning 2-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida Tanlov hay'ati ekspertlari tomonidan baholanadi.

18. Baholash natijalari yuqoridan pastga ballning kamayish tartibida 1-ilovada keltirilgan jadval asosida tayyorlanadi va kamida 75 ball yoki undan eng yuqori to'plagan raqamli ta'lim resurslari va ularning muallif(lar)i g'olib deb belgilanadi.

19. Agar ishtirokchilarning ikki va undan ortig'i bir xil ball to'plasa, bunda, Tanlov hay'atining xulosasiga ko'ra Tashkiliy qo'mita qarori bilan barcha g'oliblar bir xil o'rin bo'yicha taqdirlanadi.

20. Tanlovning barcha bosqichlarida g'oliblar aniqlanib, ularning ro'yxati va raqamli ta'lim resurslari tegishli bayonnomalarda qayd qilinib, tanlovning keyingi bosqichida qatnashish uchun tavsiya etiladi.

21. Tanlovning respublika bosqichida g'olib deb topilgan mualliflarning raqamli ta'lim resurslari ommalashtirish uchun Kasbiy ta'limni rivojlantirish institutining <http://rtr.profedu.uz> raqamli ta'lim resurslari platformasiga joylashtiriladi.

22. Tanlov hay'ati taqdim etilayotgan raqamli ta'lim resurslarining tanlov shartlariga muvofiqligini aniqlaydi, Tashkiliy qo'mita esa tanlov jarayonlarini ommaviy axborot vositalari, Agentlikning rasmiy sayti va uning ijtimoiy tarmoqlari sahifalarida yoritib borishni ta'minlaydi.

23. Respublika bosqichida ommalashtirishga tavsiya etilgan raqamli ta'lim resurslarining ro'yxati Kasbiy ta'lim agentligi rasmiy saytida va uning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.

IV. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

24. Tanlovning kasbiy ta'lim tashkilotlari va hududiy bosqich g'oliblari mos ravishda ta'lim tashkiloti, hududiy boshqarmalar tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi.

25. Respublika ko'rik-tanlovining natijalari Kasbiy ta'lim agentligi hamda Kasbiy ta'limni rivojlantirish institutining rasmiy saytlari va ularning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.

26. Tanlovning respublika bosqichi g'oliblari tegishli kasb (mutaxassislik)lar bo'yicha diplom, shuningdek:

I o'rin uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari hisobidagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi;

hamkorlikda ishlab chiqilgan va respublika bosqichida qatnashib g'olib deb topilgan raqamli ta'lim resursi mualliflarning har biriga tegishli darajadagi diplom beriladi, g'olib o'rin uchun belgilangan pul mukofoti ular o'rtasida teng taqsimlanadi;

belgilangan kasb (mutaxassislik)lar bo'yicha tanlovning respublika bosqichida qatnashib sovrinli 1-o'rinni egallamagan, lekin 75 balldan yuqori keyingi 5 ta o'rindagi ishtirokchilar Agentlikning "Faxriy yorliq"lari bilan taqdirlanadi.

27. Tanlovni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazishda faollik ko'rsatgan hududiy, respublika Tashkiliy qo'mitasi hamda Tanlov hay'ati a'zolari moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishga tavsiya etiladi.

V. Apellatsiya komissiyasi

28. Tanlov hay'ati tarkibiga kirmagan mutaxassislardan iborat apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

29. Tashkiliy qo'mitaning raisi bevosita apellyatsiya komissiyasi raisi hisoblanadi.

30. Tanlov natijalaridan norozi bo'lgan ishtirokchilar natijalar e'lon qilingan sanadan boshlab 1 ish kuni mobaynida respublika Tashkiliy qo'mitasining apellyatsiya komissiyasiga yozma shikoyat berishga haqlidir.

31. Apellyatsiyaga Tanlov qatnashchilarining faqatgina o'zlari tomonidan bajarilgan ishlari bo'yicha arizalari ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi.

32. Apellyatsiya komissiyasi zaruriyat bo'lganda, Tanlov hay'ati qarorini bekor qilish va ularga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

VI. Yakuniy qoidalar

33. Tanlovni respublika bosqichini o'tkazish muddati hamda raqamli ta'lim resurslari ishlab chiqiladigan kasblar Agentlikning tegishli buyrug'i bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.

34. Tanlovni o'tkazish bilan bog'liq hujjatlar tanlov bosqichlari o'tkazilgandan keyin 3 yil muddat saqlanadi. Saqlash muddati yakunlangan hujjatlar amaldagi qoidalarga muvofiq utilizatsiya qilindi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari
o'rtasida "Eng yaxshi raqamli ta'lim
resurslari" ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibiga
1-ilova

Raqamli ta'lim resurslarini tanlovga taqdim etish shakli

T/r	Kasb (mutaxassislik) kodi va nomi	Kvalifikatsiya nomi	Modul nomi	Modul soati	Ta'lim tili	RTR mualliflari to'g'risida ma'lumot:		
						Familiyasi, ismi, sharifi	Ta'lim muassasasi	Lavozimi
1.								
2.								
3.								
4.								
5.								
6.								
7.								
8.								
9.								
10.								
11.								
12.								
13.								
14.								
...								
60.								

Tanlovga taqdim etilayotgan ___ ta RTRning elektron nusxalari, ishlanma tavsiflari va tegishli qo'shimcha materiallar ilova qilinmoqda.

Rahbar: _____
(F.I.Sh.) (imzo)

Muhr

sana "____" _____202__ yil

Kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari
o'rtasida "Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari"
respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibiga
2-ilova

"Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" ko'rik-tanlovi materiallarini baholash mezonlari

/r	Raqamli ta'lim resurslarini baholashning umumiy mezonlari	Maksimal ball	Ekspert tomonidan qo'yilgan ball	Ekspert F.I.Sh.	Imzo
Nominatsiya bo'yicha soha eksperti					
1.	Ma'ruza matni muallif(lar) tomonidan shakllantirilgan mavzular (nazariy va amaliy) kesimida qamrab olinganligi: 100% qamrab olingan bo'lsa – 10 ball; 70-95% oralig'ida qamrab olingan bo'lsa – 7-9 ball; 50-65% gacha qamrab olingan bo'lsa – 5-6 ball; 20-45% gacha qamrab olingan bo'lsa – 2-4 ball.	10			
2.	Shakllantirilgan mavzular o'qitish natijalariga mos yoritilganligi: 100% yoritilgan bo'lsa – 10 ball; 70-95% oralig'ida yoritilgan bo'lsa – 7-9 ball; 50-65% gacha yoritilgan bo'lsa – 5-6 ball; 20-45% gacha yoritilgan bo'lsa – 2-4 ball.	10			
3.	Shakllantirilgan mavzularning nazariy va amaliy (ishlab chiqarish amaliyoti) mashg'ulotlariga mos yoritilganligi: 100% yoritilgan bo'lsa – 10 ball; 70-95% oralig'ida yoritilgan bo'lsa – 7-9 ball; 50-65% gacha yoritilgan bo'lsa – 5-6 ball; 20-45% gacha yoritilgan bo'lsa – 2-4 ball.	10			

4.	Imlo qoidalariga rioya qilinganligi: 100% amal qilingan bo'lsa – 5 ball; 15 tadan ortiq xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa – 2 ball; 20 tadan ortiq xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa – ball berilmaydi.	5			
5.	Nazorat savollari (amaliy topshiriqlar, test materiallari, mashqlar, masalalar to'plami va boshqalar) mavzular xususiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilganligi: 100% qamrab olingan bo'lsa – 10 ball; 70-95% oralig'ida qamrab olingan bo'lsa – 7-9 ball; 50-65% gacha qamrab olingan bo'lsa – 5-6 ball; 20-45% gacha qamrab olingan bo'lsa – 2-4 ball.	10			
6.	Glossariyning sifatliligi (atamalarining sohaga xosligi, mazmuni to'g'ri izohlanganligi va alifbo ketma-ketligida shakllantirilganligi) bo'yicha talablarning bajarilganligi: 100% mazmuni mavzularga mosligi, alifbo ketma-ketligida shakllantirilganligi – 5 ball; 80-95% mazmuni mavzularga mosligi, alifbo ketma-ketligida shakllantirilganligi – 4 ball; 60-79% mazmuni mavzularga mosligi, alifbo ketma-ketligida shakllantirilganligi – 3 ball; 40-59% mazmuni mavzularga mosligi, alifbo ketma-ketligida shakllantirilganligi – 2 ball;	5			
7.	Tanlangan o'qitish metodlarining shakllantirilgan mavzularga mosligi 100% qamrab olingan bo'lsa – 10 ball; 70-95% oralig'ida qamrab olingan bo'lsa – 7-9 ball; 50-65% gacha qamrab olingan bo'lsa – 5-6 ball; 20-45% gacha qamrab olingan bo'lsa – 2-4 ball.	10			

AKT bo'yicha ekspert

8.	Ma'ruza matnida calibri shrifti, 14 o'lchovi, satrlararo interval – 1 o'lchovda belgilanganligi (odinarniy): (<i>matn yuqoridan-20 mm, pastdan-20 mm, chapdan-30 mm, o'ngdan-15 mm</i>li hoshiyalar oralig'iga joylashtiriladi; har bir reja ma'lumoti 1,5-2 betdan kam bo'lmagan holda).; 100% rioya qilingan bo'lsa – 5 ball; 80-99% rioya qilingan bo'lsa – 4 ball; 60-79% rioya qilingan bo'lsa – 3 ball; 59% gacha rioya qilingan bo'lsa – 2 ball 30-40% gacha rioya qilingan bo'lsa – ball berilmaydi.	5			
9.	Video materiallarning mavzularga mosligi: 100% qamrab olingan bo'lsa – 10 ball; 70-95% oralig'ida qamrab olingan bo'lsa – 7-9 ball; 50-65% gacha qamrab olingan bo'lsa – 5-6 ball; 20-45% gacha qamrab olingan bo'lsa – 2-4 ball.	10			
10.	Videomateriallarning sifati (mp4, avi, mkv, flv, mov kengaytmali fayllar holatidagi audio, video va animatsion materiallar) kamida: 480p (SD: 854x480) bo'lsa – 10 ball; 360p (SD: 640 x 360) bo'lsa – 8 ball; 240p (SD: 426 x 240) bo'lsa – 6 ball; videomateriallarning sifati aralash keltirilgan bo'lsa, ballar ularning nisbatiga qarab mos ravishda belgilanadi.	10			
11.	Didaktik-ko'rgazmali va taqdimot materiallar (ppt, pptx, pdf, jpg, png va boshqa ko'rinishlarda)ning shakllantirilgan mavzularga mosligi va sifati: 100% qamrab olingan bo'lsa – 10 ball; 70-95% oralig'ida qamrab olingan bo'lsa – 7-9 ball; 50-65% gacha qamrab olingan bo'lsa – 5-6 ball; 20-45% gacha qamrab olingan bo'lsa – 2-4 ball.	10			

12.	Raqamli ta'lim resursini baholashda uning interfeysi (dasturdan foydalanish qulayligi va interaktivlik) foydalanish uchun qulay va dizayni jozibali tayyorlanganligi, mundarija va har bir mavzu bo'yicha resurslarning to'liq shakllantirilganligi hamda ergonometrik talablar (materiallarda rang, shrift, monitor ekrani o'lchamiga mosligi va boshqalar)ning ta'minlanganligi: 100% rioya qilingan bo'lsa – 5 ball; 80-99% rioya qilingan bo'lsa – 4 ball; 60-79% rioya qilingan bo'lsa – 3 ball; 59% gacha rioya qilingan bo'lsa – 2 ball; 30-40% gacha rioya qilingan bo'lsa – ball berilmaydi.	5			
	Jami:	100			

Izoh: o'rinlarni aniqlashda kamida 75 dan oshiq ball to'plagan nomzodlar orasidan eng yuqori ballga ega 3 nafari g'olib deb topiladi.

Hay'at raisi: _____
(F.I.Sh)

(Imzo)